



XITOIY ADABIY TILI “PUTONGHUA” DA FONETIKA

Daminova Rahima

Samarqand Davlat Chet tillari Instituti o'qituvchisi

Salimova Sohiba

Yaqin sharq tillari fakulteti Xitoy tili 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi xitoy tili Putonghua (普通话) fonetikasi, shevalar qiyosi, ahamiyati, ehtiyoj, talaffuzning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Tayanch so'z va iboralar: Xitoy tili, tilshunoslik, fonetika, shevalar, pekin dialektikasi.

Kirish: Putonghua (Mandarin) zamonaviy xitoy tili Han millatining umumiy adabiy tili hisoblanib, talaffuz sifatida Pekin dialektika fonetikasi asosidagi shakllangan shimol lahjasi me'yor sifatida tanlab olingan.

Xitoy Xalq Respublikasi Konsitutsiyasi 19-moddasida davlat butun mamlakat bo'ylab keng tarqalgan mandarin tilini targ'ib qilish belgilab qo'yilgan.

Milliy til ishlari qo'mitasi, Milliy ta'lim komissiyasi vazirliklari tomonidan 1994 –yil 43- sonly qaroriga ko'ra “ Adabiy til- “Putonghua ” ni bilish imtihonlarini o'tqazish” to'g'risidagi qarorga binoan milliy tilni bilish darajasidagi malaka sertifikatini dasturiy yo'lga qo'yilgan. Bu jarayonlarni biz Xitoy Xalq Respublikasi hududida adabiy tilga bo'lgan yuksak e'tibor va rag'batning yaqqol misoli sifatida ko'rishimiz mumkin.

Asosiy qism : Nutqning fonetik xossalarini matn orqali dastlab amaliy, so'ngra nazariy o'zlashtirib borish bilan adabiy til me'yorlari asosida malaka va ko'nikmalarni shakllantirish bo'lg'usi yosh mutaxassislarni “o'z fikrini mustaqil , davlat tilida ravon, go'zal va lo'nda ifodalash”ga samarali yordam beradi (Karimov I.A “Barkamol avlod –O'zbekiston taraqqiyotining poydevori Toshkent “Sharq” 1997 yil 9-bet) ”.

Pekin lahjasida fonetika alohida ajralmas mukammal tizim sifatida rivojlanib bormoqda. Bu holat nafaqat xitoyliklarning balki xitoy tilini o'rganuvchi chet elliklarning ham Xitoy adabiy tili fonetikasiga alohida yondashish lozimligini ko'rsatadi. Xitoy tili dunyodagi eng rivojlangan tillardan biri. Amaliy ko'lam keng, Birlashgan Millatlar Tashkilotining amalda qo'llayotgan tilidir. Til millat, xalq birligi, jamiyat va fan texnika taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, moddiy, ma'naviy qurilishning asosiy qismidir. Bozor iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, axborot texnologiyalarining uzluksiz innovatsiyasi xitoy adabiy tilini ommalashtirishning dozarbligini tobora taqozo etadi. Muayyan me'yorlarsiz tilda haqiqiy umumiylikka erishish mumkin emas. Putonghua me'yorlari zamonaviy xitoy tili talaffuzi, ohanglari, lug'atlari, grammatik qoidalarini o'zida yaxlit mukammal namoyon etadi. Xitoy adabiy tilini o'rganishda uch muhim jihatga alohida e'tibor berish lozim: fonetika, so'zlar va so'zlarning lug'aviy ma'nosi hamda Grammatik tuzilishi. Grammatika shuningdek, lug'atni o'rganish va tartibga solish yozma shaklda, talaffuzni o'rganish va tartibga solish og'zaki hamda quloqni o'rgatish, ohanglarga alohida urg'u bergan holda amalga oshiriladi.

Xitoy tilining yettita asosiy dialektik- lahja hududi mavjud bo'lib, bular quyidagilardir:



1. 北方方言区 (Dialect district in north- Sariq daryo havzasida , shimoli-sharqda Yansizi daryo havzasi atrofi,janubi-g'arbiy qismida joylashgan aholi shevasi)
2. 吴方言区 (Wu dialect district – Shanhay, janubi- sharqiy Jiansu provinsiyasi, Zhejiang provinsiyasi ko'p qismi)
3. 湘方言区(Hunan Province dialect district – asosan Hunan provinsiyasining ko'p qismi)
4. 赣方言区 (Gan dialect district – Jiangxi provinsiyasining katta qismi, janubi- sharqiy Hubei provinsiyasi)
5. 客家方言区 (Hakka dialect district – Guangdong, Guanxi, Fujian va Jiangxining katta qismi)
6. 闽方言区 (Fujian Province dialect district – Fujian, Taiwan, Guangdong, Chaoshan hududi, Hainan provinsiyasining bir qismi)
7. 粤方言区 (Cantonese dialect district – Guangdong markaziy va janubi- g'arbiy qismi, Guanxi janubi- sharqida yashovchi aholi shevasi)

Xitoy tilining dialectikasi fonetikada yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir hududning sheva tizimida katta farqlar mavjud, shuningdek o'rtasida ma'lum bir mutanosiblikni kuzatamiz. Xitoy adabiy tili Pekin talaffuzidan standart sifatida foydalanadi, bu butun fonetik tizimga asoslangan bo'lib, erkin shevadagi mahalliy tovush va komponentlarni o'z ichiga olmaydi.

Putonghua – Han millatining me'yorlashtirilgan umumiy tili, Pekin fonetikasiga asoslanadi, bu xitoy tilining tarixiy rivojlanishida ham muqarrar hamda ko'pchilik tomonidan uzoq vaqtdan beri tan olingan.

Til odamlarning muloqot quroli, nutq esa tilning mohiyati. Muloqot jarayonida lug'at va tushunchalar o'zaro fonetik shaklda amalga oshiriladi, inson miyasi nutqning fonetik shaklidagi ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish uchun javobgar. Odamlar o'z fikrlarini ifodalash va til bilan muloqot qilish uchun ovozga tayanadi. Gapiroyotganda ovoz a'zolari tomonidan yuborilgan ovoz orqali o'z fikr va his-tuyg'ularni ifodalaydi. Tinglaganda esa, boshqa tomoning uzatgan ma'lumot, his-tuyg'ularni tushunish uchun eshitish a'zolari yordamida seziladigan ovozga tayanishimiz kerak. Inosn gapiradimi, tinglaydimi, til(tovush)-ovoz mohiyatdan ajralmas.

Xitoy adabiy tili ikki jihatdan mutassil o'rganishni talab etadi ya'ni talaffuz va identifikatsiya . Xitoy tilida fonetikaga oid ma'lum bilimlarni egallash uchun, har bir fonema va bo'g'inlarni to'g'ri qism va usulga ko'ra talaffuz qilish zarur. Natija kutgandek chiqishi uchun shevalar ta'sir qiladigan talaffuz odatlarini egallangan fonetik bilimlar yordamida tizimli ravishda tuzatib borishimiz darkor. Muntazamlik, qatiyat, tajriba xitoy tili fonetik o'rganishning asosiy talablari bo'lib, bu bizdan nafaqat miyamizdan foydalanishni, balki ishtiyoqli bo'lishni, takroriy mashqlar yordamida egallagan bilim va ko'nikmalar orqali xotirani chuqurlashtirishni talab etadi.

Metodlar: Har bir tilning tovushi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xitoy adabiy tili Pekin talaffuziga asoslangan bo'lib, soddaligi, ravshanligi, kuchli ifoda ta'siri bilan ajralib turadi. Buni quyidagilar orqali ko'rishimiz mumkin:

1. Pekin fonetikasining tuzilishi nisbatan sodda, bo'g'in tuzilishi esa kamroq
2. Bo'g'inlarda unlilar ustunlik qiladi, jarangsiz bosh harflar ko'p, eshitish hissi tiniq va baland
3. Ohanglar sodda, o'zgarishlar shaffof aniq ko'rinishda. To'rt ohang belgisining balandligi va pastligi aniq komponentlarga ega bo'lib, ovoz tiniq va musiqali tarzda amalga oshiriladi
4. Bo'g'inlar orasidagi farq tiniq va batafsil, bu esa ovozda ritm tuyg'usini ta'minlaydi



5. Ikki bo'g'inli so'zlar, so'zlarning yengil va murakkab shakllarini farqlash, yumshoq ohang va jarangdorlik til ifodasini yanda aniq va boy qiladi.

Erishilgan natijalar: Xitoy tili fonetikasida urg'u uning tarkibi, o'rni va vazifasi, intonatsiya, pauza, bo'g'in tuzilishi kabi masalalar alohida e'tibor, izchil o'rganishni talab qiladi. Nutq barcha tovushlar uchun jismoniy xususiyatga ega, biz uni akustika nuqtai-nazaridan tahlil qilishimiz mumkin, inson tafakkur, nutqni idrok etish jarayoni psixologik faoliyatning bir turi bo'lib, nutq xodisalarini insonning psixologik faoliyati jarayonidan ham tahlil qilish mumkin. Nutq tovushdir, shuning uchun tovushning fizik xususiyati deb qaraymiz, biz uni balandlik, tovush intensivligi, tovush davomiyligi, va tembrning elementlari orqali o'rganishimiz mumkin.

Xulosa: Xitoy tilida fonetikasida so'z urg'usi, bo'g'inlar haqida ko'plab bahsli holat va jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Tajriba va tahlillar natijasida Wang Yunjia va Chu Min (2006) "nutq oqimida so'zdagi bo'g'in vaznini idrok etish davomiylikdan ko'ra asosiy tashqi taraf bilan chambarchas bog'liq" deb xulosaga kelishgan. Xitoy tilida so'z urg'u formati va bo'g'iniga ko'ra quyidagi qarashlarga ega: urg'u oxirgi bo'g'inda : Zhao Yuanren (1997 :23), urg'u chap yoki o'ng bo'g'inda: Lin Maodun (1998), YanJingju (1988), urg'u nutqdagi psixologik holatga ko'ra: Wang Shijie va Feng Shengli(2006), urg'u bo'g'inda mufassal joyga ega: Duanmu San (2009) . Xitoy tili fonetikasi xitoy adabiy tili bilan yonma-yon rivojlanib borayotgan ekan, demak bu ushbu holat tilshunoslarni muntazam ilmiy, nazariy, amaliy o'rganishlikni talab etadi.

O'zbek tilidagi adabiyotlar:

1. S.Hashimova S.Nosirova 现代汉语语法
2. S.Hashimova Xitoy tilida so'z yasalishi汉语构词法
3. Hidoyatova Sh., Karimov A., Aminov E., Xitoy tili grammatikasi (fonetika va ieroglifik yozuv)

Xorijiy tildagi adabiyotlar:

1. Zhao Yuanren O'gzaki xitoy tili grammatikasi – 汉语口语语法
2. Lin Maocan, Yan Jingzhu, Sun Guohua . Pekin dialektikasining ikki belgili guruhlarining normal urg'usi bo'yicha dastlabki tajribalar , dialektika. –北京话两字组正常重音的初步实验。方言。
3. Shi Feng , Wang Ping Pekin shevasi ohangining statistic tahlili- 声调对比法与北京话双音组的重音类型。
4. Yang Lu. Pekin lahjasida ikki bo'g'inli so'zlarning urg'usi bo'yicha tadqiqot - 北京话双音节词重音研究